

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNING YOSHLAR BANDLIGIGA TA'SIRI

Safarova Gulruh Akmal qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: [gulruhsafarova0116@gmail.com](mailto:gulruhsafarova0116@gmail.com)

ORCID: 0009-0002-4020-7826

Tel: +998995517903

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20535932>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli kompetensiyalarning yoshlar bandligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda raqamli ko'nikmalarning ish bilan ta'minlanish, mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik va iqtisodiy faollikni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlashda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli kompetensiya, yoshlar bandligi, mehnat bozori, inson kapitali, raqamli ko'nikmalar.

**Abstract.** This thesis explores the impact of digital competencies on youth employability in the context of the digital economy. The study examines the role of digital skills in enhancing employment opportunities, labor market competitiveness, and economic participation among young people. Furthermore, it highlights key directions for the development of digital competencies as an important factor in improving youth employability.

**Keywords:** digital economy, digital competencies, youth employability, labor market, human capital, digital skills.

**Аннотация.** В данной работе исследуется влияние цифровых компетенций на занятость молодежи в условиях цифровой экономики. Рассматривается роль цифровых навыков в повышении возможностей трудоустройства, конкурентоспособности на рынке труда и экономической активности молодежи. Также выделены приоритетные направления развития цифровых компетенций как важного фактора повышения занятости молодежи.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, цифровые компетенции, занятость молодежи, рынок труда, человеческий капитал, цифровые навыки.

### Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi natijasida mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo'lmoqda, mavjud kasblarga qo'yiladigan talablar esa o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlarning raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishi ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning keng joriy etilishi mehnat resurslariga bo'lgan talabni sezilarli darajada o'zgartirmoqda [1]. Yevropa Komissiyasining DigComp 2.2 modeliga ko'ra, raqamli kompetensiyalar zamonaviy inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi [2].

O'zbekiston sharoitida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, yoshlarning bandligi masalasi raqamli ko'nikmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda [3].

Mazkur tezisning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli kompetensiyalarning yoshlar bandligiga ta'sirini o'rganish hamda yoshlarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatini ta'minlashda ushbu kompetensiyalarning o'rnini tahlil qilishdan iborat.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli kompetensiyalar mehnat bozoriga moslashuvning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Jahon banki (2019) raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi bandlik imkoniyatlarini cheklovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi [4]. OECD tadqiqotlari esa raqamli iqtisodiyotda "skills mismatch" muammosi kuchayib borayotganini ko'rsatadi [1;3]. Skills mismatch — bu xodimlarning ko'nikma va malakasi bilan ish o'rni talablari o'rtasidagi nomuvofiqlikni anglatadi.

### Metodologiya

Tadqiqotda 130 nafar respondent (18–30 yoshdagi talabalar va yosh mutaxassislar) ishtirok etdi. Ma'lumotlar strukturalangan so'rovnoma orqali yig'ildi.

#### 1-jadval. O'zgaruvchilar

Mustaqil o'zgaruvchi	Bog'liq o'zgaruvchi	Nazorat o'zgaruvchilari
raqamli kompetensiya indeksi(DC) (1–5 Likert shkalasi)	bandlik holati(Y) (0 = ishsiz, 1 = band)	yosh, jins, ta'lim darajasi

Ekonometrik model:  $Y = \beta_0 + \beta_1(DC) + \varepsilon$

#### Empirik natijalar

- Respondentlarning 78.5% raqamli kompetensiyalar bandlikka bevosita ta'sir qiladi deb hisoblaydi
  - AI vositalaridan foydalanish darajasi — 69%
  - O'rtacha raqamli kompetensiya indeksi — 3.7/5
- Pearson korrelyatsiya natijalari:  $r = 0.61$  ( $p < 0.01$ )

Bu raqamli kompetensiyalar va bandlik o'rtasida statistik jihatdan muhim ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

#### 2-jadval. Regressiya tahlili qiymatlari

Ko'rsatkich	qiymat
$\beta_0$	0,41
$\beta_1$	0,59
$R^2$	0,38
p-value	0,01

Manba: So'rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Natijalarga ko'ra, raqamli kompetensiya darajasi 1 birlikka oshganda, bandlik ehtimoli 0.59 birlikka oshadi.

Modelning tushuntirish kuchi ( $R^2 = 0.38$ ) qoniqarli darajada ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. OECD va World Bank ma'lumotlariga ko'ra, raqamli kompetensiyalar mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi [1;4].

O'zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yoshlar bandligiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli kompetensiyalar yoshlar bandligini oshiruvchi muhim determinant hisoblanadi. Shu sababli ta'lim tizimida raqamli savodxonlik va amaliy raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. OECD (2023). *Employment Outlook: Artificial Intelligence and Labour Market*.
2. European Commission (2022). *DigComp 2.2 Framework*.
3. OECD (2023). *Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan*.
4. World Bank (2019). *World Development Report: The Changing Nature of Work*.
5. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*.